XALQ DEPUTATLARI YANGIYO‘L TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-013-10-146-K/24 Yangiyo‘l tumani

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 2025 yil uchun qabul qilingan budjet to‘g‘risidagi Qonun talablari asosida, Yangiyo‘l tumanining 2025-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024 yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli Qonuni va Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining “Toshkent viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Yangiyo‘l tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi boshlig‘i X.Sh.Choriyevni ma’ruzasi, ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yangiyo‘l tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi boshlig‘i X.Sh.Choriyevni kun tartibiga qo‘yilgan masala yuzasidan ma’ruzaning tayyorlanishi, sessiyada ishtirok etayotgan deputatlar tomonidan, qoniqarli deb hisoblansin.

3. Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining “Toshkent viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2024-yil 27 - dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, Yangiyo‘l tumanining 2025 yil mahalliy budjeti daromadlarining asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **115 731 077,0 ming so‘m** va asosiy xarajatlarining umumiy cheklangan miqdorlari **115 731 077,0 ming so‘m**, shuningdek Yangiyo‘l tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **578 532.0 so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

4. Quyidagilar, tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga, tuman mahalliy budjetidan 2025 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga, Yangiyo‘l tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Toshkent viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

5. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun **1 548 419.0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **4-ilova**ga,

yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **5-ilova**ga,

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **6-ilova**ga,

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari **7-ilova**ga,

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **8-ilova**ga,

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **9-ilova**ga,

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **10-ilova**ga,

Yangiyo‘l tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **11-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Q.Alkarov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Choriyev), tuman soliq inspeksiyasi rahbari (O.Saidov) bilan birgalikda 2025 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

9. Tuman hokimligining barcha manfaatdor tarkibiy tuzilmalari, mas’ul bo‘limlar va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Tuman soliq inspeksiyasi (O.Saidov) manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Tuman soliq inspeksiyasi (O.Saidov), Qishloq xo‘jaligi bo‘limi bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rsinlar.

12. Mazkur qaror tumandagi tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

13. Yangiyo‘l tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi tomonidan, kelgusida tumanni yanada rivojlantirish uchun, O‘zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi, Kodekslari, Qonunlari, Qonun osti hujjatlari talablari asosida, ishlarni tashkil qilinishiga qat’iy e’tibor berilsin.

14. Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashining VII-chaqiriq navbatdagi IV-sessiyasida tasdiqlanib qabul qilingan qarorlari, Yangiyo‘l tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi xodimlari orasida tahliliy o‘rganib chiqilishi va XDYTK kotibiyatiga belgilangan muddatda mas’ul rahbar tomonidan yozma javob berilishi to‘g‘ri deb hisoblansin.

15. Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashini VII-chaqiriq navbatdagi IV-sessiyasida Yangiyo‘l tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi uchun qabul qilingan qarorlar ijrosi va amalga oshirilishini, Yangiyo‘l tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari zimmasiga, nazorat qilib ijrosini ta’minlatish yuklatilsin.

16. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashini “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi N.Q.Xudayberdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ATAULLAYEV
ODILJON KASIMOVICH

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**115,731,077**
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	**13,794,000**
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	**8,835,390**
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	**1,531,000**
	Aksiz solig‘i jami	**9,488,500**
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0
	Pivo	0
5	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*9,488,500*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	**4,614,720**
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	**12,516,000**
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	**31,931,800**
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	**24,785,000**
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	**1,335,000**
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	**6,331,047**
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	**186,620**
13	Davlat boji	**0**
14	Yig‘imlar	**0**
15	Jarimalar	**0**
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	**382,000**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy budjetidan 2025 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming.so‘mda

T/r	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Yangiyo‘l tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	**115,731,077**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	**33,452,211**
	shundan:	
	"Mening maktabim"	**3,430,659**
2	Madaniyat bo‘limi	**1,023,784**
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	**6,375,204**
4	Sport bo‘limi	**6,840,697**
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	**1,669,675**
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	**2,889,984**
7	Irrigatsiya bo‘limi	**2,459,385**
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	**2,343,543**
9	Hokimiyat	**40,379,845**
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	**232,640**
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	23,100
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	**23,727,745**
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	**2,071,155**
	Zahira jamg‘armasi	**1,548,419**
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	**593,805**
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	**65,607**
	Axborot-kutubxona markazlari	**528,198**
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	**17,702,944**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Yangiyo‘l tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

Foizda

T/r	Umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlar	Budjet	Yirik va hududiy soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
			DSB	9%
2	Foyda solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
			DSB	0%
3	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
			DSB	0%
4	pivo	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
			DSB	0%
5	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
			DSB	25%
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
			DSB	24%
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
			DSB	86%
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	100%
			DSB	100%
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	100%
			DSB	100%
10	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
			DSB	86%
11	Aylanmadan soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga		100%
12	Davlat boji	Tuman (shahar)lar budjetiga		0%
13	Jarima	Tuman (shahar)lar budjetiga		0%
14	Yig‘imlar	Tuman (shahar)lar budjetiga		0%

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha *(dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari)* **mutloq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari**

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 gektar uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 m² uchun (turar joylar uchun belgilangan o‘sish myoridan oshmagan holda)	
		Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Yuksalish MFY	1.9	104,395,500.0	1.7	715.5
2	Nihol MFY	1.2	65,934,000.0	1.15	484.0
3	Ibrat MFY	1.2	65,934,000.0	1.15	484.0
4	Jambul MFY	1.4	76,923,000.0	1.15	484.0
5	Yoshlik MFY	1.6	87,912,000.0	1.5	631.35
6	Do‘stlik MFY	1.1	60,439,500.0	1.1	463.0
7	Dehqonobod MFY	1.5	82,417,500.0	1.2	505.1
8	Darxon MFY	1.4	76,923,000.0	1.2	505.1
9	Guliston MFY	1.5	82,417,500.0	1.4	589.3
10	Gulbog‘ MFY	1.5	82,417,500.0	1.3	547.2
11	Gulbaxor MFY	2,0	109,890,000.0	1.3	547.2
12	G‘alaba MFY	1.9	104,395,500.0	1.7	715.5
13	Vatan MFY	1.25	68,681,250.0	1.15	484.0
14	Bo‘ston MFY	1.5	82,417,500.0	1.4	589.3
15	Bunyodkor MFY	1.9	104,395,500.0	1.6	673.4
16	Binokor MFY	1.5	82,417,500.0	1.4	589.3
17	Baytish MFY	1.4	76,923,000.0	1.15	484.0
18	Islohot MFY	1.3	71,428,500.0	1.2	505.1
19	Ahil MFY	1.6	87,912,000.0	1.5	631.35
20	Ittifoq MFY	1.2	65,934,000.0	1.15	484.0
21	Yangiyo‘l MFY	1.2	65,934,000.0	1.15	484.0
22	Namuna MFY	2,0	109,890,000.0	1.6	673.4
23	Navbahor MFY	2,0	109,890,000.0	1.3	547.2
24	Mirishkor MFY	1.2	65,934,000.0	1.15	484.0
25	Mirzo Ulug‘bek MFY	1.3	71,428,500.0	1.2	505.1

26	Mingbuloq MFY	1.35	74,175,750.0	1.2	505.1
27	Markaz MFY	1.25	68,681,250.0	1.2	505.1
28	Madaniyat MFY	1.5	82,417,500.0	1.4	589.3
29	Qo‘sh tepa MFY	1.5	82,417,500.0	1.2	505.1
30	Qo‘sh yog‘och MFY	1.4	76,923,000.0	1.15	484.0
31	Ko‘kalamzor MFY	2,0	109,890,000.0	1.6	673.4
32	Qora tepa MFY	1.5	82,417,500.0	1.2	505.1
33	Qovunchi MFY	1.6	87,912,000.0	1.5	631.35
34	Qirsadak MFY	1.9	104,395,500.0	1.6	673.4
35	Qirariq MFY	2.1	115,384,500.0	2,0	841.8
36	Kesken MFY	1.3	71,428,500.0	1.2	505.1
37	Iftixor MFY	1.2	65,934,000.0	1.15	484.0
38	Nurafshon MFY	1.5	82,417,500.0	1.3	547.2
39	Niyozbosh MFY	2,0	109,890,000.0	1.6	673.4
40	Chamanzor MFY	2,0	109,890,000.0	1.2	505.1
41	Nurobod MFY	1.5	82,417,500.0	1.4	589.3
42	Obod MFY	2.1	115,384,500.0	2,0	841.8
43	Ozod MFY	1.2	65,934,000.0	1.2	505.1
44	Olmazor MFY	1.25	68,681,250.0	1.2	505.1
45	Paxta MFY	1.5	82,417,500.0	1.3	547.2
46	Pistalik MFY	1.4	76,923,000.0	1.2	505.1
47	Registon MFY	1.5	82,417,500.0	1.4	589.3
48	Samarqand MFY	2,0	109,890,000.0	1.9	799.7
49	Chang tepa MFY	1.5	82,417,500.0	1.3	547.2
50	Saxovat MFY	1.1	60,439,500.0	1,0	420.9
51	Soxibkor MFY	1.3	71,428,500.0	1.15	484.0
52	Said-ota MFY	2,0	109,890,000.0	1.9	799.7
53	Umid MFY	1.1	60,439,500.0	1.1	463.0
54	Tuya bo‘g‘iz MFY	2,0	109,890,000.0	1.2	505.1
55	Sho‘ralisoy MFY	1.2	65,934,000.0	1.2	505.1
56	Epkendi MFY	1.1	60,439,500.0	1,0	420.9
57	Xo‘jaobod MFY	1.1	60,439,500.0	1.1	463.0
58	Xonqo‘rg‘on MFY	2,0	109,890,000.0	1.2	505.1
59	Xalqobod MFY	1.5	82,417,500.0	1.3	547.2
60	Shodlik MFY	1.6	87,912,000.0	1.5	631.4
61	Farovon MFY	1.6	87,912,000.0	1.5	631.4
62	O‘zbekiston MFY	2,0	109,890,000.0	1.6	673.4
63	O‘zbekiston bekati MFY	1.7	93,406,500.0	1.5	631.4
64	Xaqiqat MFY	1.2	65,934,000.0	1.15	484.0

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman (shahar) nomi	Koeffitsient	Mutloq miqdor (so‘mda)
1	Yangiyo‘l tumani	1.00	1,300,000.00

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Soliq solish ob'ektlari	Soliq stavkalari, foizlarda	Koeffitsient
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,34	1,05
2.	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	0,45	1,05
	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	0,6	1,05
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,45	1,05
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob'ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob'ektlari	1,5	1,0

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
7-ilova

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlar

ming so‘mda,

T/r	Hudud nomi	2025-yil						
		Chakana savdo			Maishiy xizmat	Boshqa faoliyat turlari	Yuk tashish faoliyati	
		Oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotish	Dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotish	Gazeta jurnallar va kitob mahsulotlari sotish			3 tonnagacha yuk tashish avtomobil-lari uchun	3 tonnadan ortiq yuk tashish avtomobillari uchun
1	Yangiyo‘l tumani	600.00	200.00	200.00	200.00	200.00	250.00	350.00

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori

(Qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman (shahar) nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		yer usti	yer osti	yer usti	yer osti	yer usti	yer osti	yer usti	yer osti
1	Yangiyo‘l tumani	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori

T/r	**Tuman (shahar) nomi**	Tabiiy bezaktoshdan bloklar, arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, marmar, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granitlar, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi
1	Yangiyo‘l tumani	1.30	1.30	1.30

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori

ming so‘mda,

T/r	**Tuman (shahar) nomi**	**Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i, ming so‘mda**					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2025-yil minimal qiymat	Koeffi-sient	2025-yil stavka	2025-yil minimal qiymat	Koeffi-sient	2025-yil stavka
1	Yangiyo‘l tumani	5.50	1.05	5.78	11.00	1.20	13.20

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-146-K/24 -son qaroriga
11-ilova

Yangiyo‘l tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

сўмда,

№	Hudud nomi	2025-yil
1	Yangiyo‘l tumani	578 532